O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»
O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti rektori v.v.b
Z.Ya.Raxmanov
_____
«____»_____2026 yil

«MA’QULLANDI»
O‘zbekiston Respublikasi Oliy
ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi OAK raisi
A.T. Yusupov
_____
«____»_____2026 yil

07.00.01 – «O‘zbekiston tarixi» ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon D A S T U R I

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2026 yil «____»_____ ____-sonli qarori bilan tasdiqlangan

TOSHKENT – 2026

ANNOTATSIYA

“O‘zbekiston tarixi” ixtisosligidan malakaviy imtihon qabul qilish dasturi O’zbekiston Respublikasining “Ta`lim to’g’risida” Qonuni hamda pedagogika fanini rivojlantirishga oid mavjud me`yoriy hujjatlar asosida yaratilgan bo’lib, psixologik-pedagogik tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismidir. Uning asosiy maqsadi – O’zbekiston tarixi bo’yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini uning ushbu fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy kontseptsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu bilimlar tarmog’ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog’lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganligini ko’rsatib berishi lozim.

Tuzuvchilar : t.f.d., dots. F.O.Ismatullayev
t.f.n, dots. Yo.R.Tayronov

Taqrizchi: t.f.d., prof. D.Bobojonova
PhD, dots. J.M.Kamolov

Ushbu dastur universitet Ilmiy-texnik kengashining 2026- yil 6- yanvardagi 1-sonli majlisida tasdiqlangan.

O‘ZBEKISTON TARIXI FANINING METODOLOGIYaSI

Maqsad va vazifalar

07.00.01 – “O‘zbekiston tarixi” malakaviy imtihonining o‘tkazilishidan maqsad oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimida o‘qishga tayyorgarlik darajasini aniqlash hisoblanadi. Ixtisosligi “O‘zbekiston tarixi” bo‘lgan katta ilmiy xodim-izlanuvchilarning malakaviy imtihon dasturi eng qadimgi davrlardan boshlab, bugungi kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Umumiy qism – O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolari va asosiy mavzularini, shuningdek, ularning tarixshunosligi va manbashunosligi tahlilini o‘z ichiga oladi. Katta ilmiy xodim-izlanuvchilar ushbu masalaning nafaqat o‘rganilish tarixini, balki, hozirda munozarali, turli nuqtai nazarlardan yondoshilgan talqinlari bilan ham tanish bo‘lishlari lozim. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda katta ilmiy xodim-izlanuvchilarga ma’lum bir adabiyotlarni tavsiya etish bilangina cheklanish maqsadga muvofiq emas. Chunki, konseptual ahamiyatga ega bo‘lgan fikrlarni nafaqat maxsus monografik tadqiqotlarda, balki boshqa adabiyotlarda ham uchratish mumkin. Shunday ekan, katta ilmiy xodim-izlanuvchilarga yangi ilmiy adabiyotlar bilan bir qatorda, ilmiy va ijtimoiy- siyosiy xarakterdagi davriy nashrlarni, shuningdek, xorijda chop etilgan adabiyotlarni ham o‘rganib chiqish tavsiya etiladi.

Katta ilmiy xodim-izlanuvchilarning malakaviy imtihoni dasturi o‘z ichiga Vatanimiz tarixining eng qadimgi davridan hozirgi vaqtgacha bo‘lgan davrini qamrashi tarixni o‘zining ichki qonuniyatlariga ega bo‘lgan kompleks jarayon sifatida talqin etish imkonini beradi. Unda O‘zbekiston hududida turli davrlarda mavjud bo‘lgan qadimiy madaniyatlar va turli bosqichlari taraqqiyotidagi o‘ziga xos xususiyatlari va tarixiy rivojlanish qonuniyatlari aks topgan. Dastur Nizomiy nomidagi TDPU professor o‘qituvchilari tomonidan tayyorlanib, Tarix fakulteti kengashida muhokama qilingan.

Mazkur dasturga O‘zbekiston tarixidagi mavjud asosiy ilmiy muammolar va munozarali masalalarni alohida ajratib o‘rganish imkonini beruvchi xronologik usul asos qilib olingan. Dasturda umumnazariy yondoshuvlarning muayyan tarixiy tadqiq etish tajribasi bilan birligi zamonaviy tarixiy tahsilning ajralmas qismini tashkil etadi.

Tarix metodologiyasi

“Tarix metodologiyasi” tushunchasi. Uning mazmuni. Tarix metodologiyasining ilmiy va o‘quv fani sifatida shakllanishi va rivojlanishi. O‘zbekiston tarixi fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o‘rni. Fanning maqsadi, vazifalari va ahamiyati. Fanning uslubiy, ilmiy-nazariy, g‘oyaviy va falsafiy asoslari hamda dolzarb masalalari.

Tarix fanining predmeti va o‘rganish ob’ekti. Tarixiy bilim va uning ishonchlilik muammosi. Tarixiylikning rivojlanishi jamiyatni ijtimoiy, ma’naviy evolyusiyasining aksi. Zamonaviy tarix fanining metodologik asoslari. Ijtimoiy rivojlanishning qonuniyatlari, asosiy bosqichlari va tadrijiy rivojlanish shakllari. Tarixiy bilimlar va tarixiy tajriba. Tarixiy bilimlarning haqqoniylik muammosi. Tarix falsafasi. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish. Jahon tarixini davrlashtirish to‘g‘risida nazariyalar. Manbashunoslik va tarixshunoslik masalalari.

Tarixiy ongning mohiyati, shakllari va funksiyalari. Tarix fan sifatida.

Jahondagi tarixiy jarayonlar. Tamaddun – sivilizatsiya tushunchasi va uning turlari. Jahon tarixida Markaziy Osiyo. Yurtimiz olimlarining O‘zbekistonning jahon tarixida tutgan o‘rni va ahamiyati haqidagi fikrlari.

Tarix fanining tamoyillari: haqiqat tamoyili, tarixiylik, xolislik tamoyili, bir yoqlamalikdan voz kechish tamoyili, tizimlilik, tarixiy manbalarga asoslanish, tarixshunoslik an’analari tamoyili.

Tarixiy tadqiqot metodlari. An’anaviy va noan’anaviy uslublar. Maxsus an’anaviy metodlar sifatida tarixiy-qiyosiy usul, tarixiy-tizimli metod, tarixiy-tipologik uslub, tarixiy davrlashtirish. Tarixiy tadqiqotlarda boshqa ijtimoiy fanlarda qo‘llaniladigan umumilmiy va maxsus metodlarning qo‘llanilishi.

Ilmiy bilishning umumiy metodlari. Empirik bilish (kuzatuv, qiyoslash, o‘lchash, tajriba). Tadqiqotning ham empirik, ham nazariy darajasida foydalaniladigan metodlar. Nazariy tadqiqot metodlari.

Tarixiy bilishning asosiy tamoyillari. Tarixiylik tamoyili. Tarixiy-ilmiy dalillarga baho berishda yondosh sohalardagi tadqiqotlarni o‘rganish zaruriyati. Tarixiy jarayonlarni va hodisalarni tadqiq etishda xolislik tamoyili. Tarixiy bilishda yaxlitlilik tamoyili. Tarixiy bilim va sabablarning o‘zaro bog‘liq elementlar tizimi sifatida yondoshish. O‘tmishdan tarixiy-ilmiy bilimlar rivojining hozirgi bosqichi uchun ahamiyatli bo‘lgan g‘oyalar, qarashlar va hodisalarni ajratib olinishi. Sovet davridagi tarixiy bilishning asosiy tamoyillari.

O‘zbekistonda zamonaviy tarix tadqiqotlari

O‘zbekistonda tarixiy tadqiqotlar. Zamonaviy ilmiy qarashlar va yondoshuvlar. Mustaqillik yillarida tarix faniga bo‘lgan munosabatning davlat siyosatiga ko‘tarilishi. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Mustaqillik yillarida xalqimizning urf-odatlari, boy ma’naviy merosi, milliy qadriyatlarini o‘rganish ahamiyati. Xalqimizning yuksak ma’naviyati, boy moddiy va ma’naviy madaniyat merosi, bag‘rikenglik, bunyodkorlik va ezgulikka intilish yosh avlodni tarbiyalashda o‘rni. O‘zbekiston tarixi bo‘yicha respublikamiz maktablari va oliy o‘quv yurtlariga mo‘ljallangan darslik va o‘quv qo‘llanmalarning yaratilishi: qo‘lga kiritilgan yutuqlar va muammolar. Darslik va qo‘llanmalarni nashr etilishi. O‘zbekiston tarixidagi innovatsiyalar va uni ta’lim tizimiga tadbiq etilishi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 yanvardagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzurida O‘zbekiston eng yangi tarixi bo‘yicha Jamoatchilik kengashining tashkil qilish to‘g‘risida”gi qarori. Eng yangi tarixni chuqur o‘rganish va o‘qitish jarayonlarining vazifalari. Birinchi Prezident I.Karimovning asarlardagi tarix fani va uning metodologiyasiga oid ilmiy-nazariy masalalar, tamoyil va yangicha yondoshuvlar. Markaziy Osiyoda tarixiy-madaniy merosga munosabat. Zamonaviy muammolar va ayrim yondoshuvlar. Prezident Sh.M.Mirziyoevning 2021 yil 19 yanvardagi ma’naviyat bo‘yicha yig‘ilishdagi nutqi. Tarix – ma’naviyat asosi.

ENG QADIMGI VA QADIMGI DAVRDA O‘RTA OSIYo

Insoniyat paydo bo‘lishi xususidagi qarashlar va nazariyalar. Antropogenez jarayoni. Insoniyatning dastlabki ajdodlari va ularning makonlari.

Qadimgi odamlarning turmush tarzi va mashg‘ulotlari. Ibtidoiy jamiyat tarixining davrlashtirish. Paleolit (qadimgi tosh) davri. Ilk paleolit davri makonlari: Selung‘ur, Qoratog‘, Ko‘lbuloq. O‘rta paleolit davri makonlari: Teshiktosh, Omonqo‘ton, Obirahmat, Qo‘tirbuloq. So‘nggi paleolit davri yodgorliklari: Omonqo‘ton, Xo‘ja Go‘r, Shug‘nov, Qorakamar. O‘rta paleolit davri ibtidoiy xo‘jaligidagi o‘zgarishlar. Ilk diniy tasavvurlar va dafn tartiblari.

So‘nggi paleolit davri. Hozirgi ko‘rinishdagi aql-idrokli odamlar (kromanonlar)ning shakllanishi. Mehnat qurollarining takomillashuvi. Urug‘chilik jamoasi – ona urug‘i jamoasining shakllanishi va uning taraqqiyoti.

Mezolit (o‘rta tosh) davri makonlari: Machay, Qo‘shilish, Obishir. Markaziy Farg‘ona yodgorliklari. O‘q-yoyning ixtiro qilinishi va uning ahamiyati. Odamlarning hayvonlarni qo‘lga o‘rgatishi, boshoqli o‘simliklarni o‘stirish malakalarini o‘zlashtira boshlashi. Ibtidoiy e’tiqodlar. Tasviriy san’at. Zarautsoy, Sarmishsoy, Teraklisoy, Nurota yodgorliklari.

Neolit (yangi tosh) davri. Joytun madaniyati. O‘rta Osiyodagi dastlabki dehqonchilik manzillari. Kaltaminor madaniyati va uning bosqichlari. Markaziy Farg‘ona neolit davri yodgorliklari. Hisor madaniyati. Tosh qurollarining takomillashuvi.

Chorvachilik va dehqonchilikning shakllanishi. Ishlab chiqarishga asoslangan xunarmandchilikning vujudga kelishi: kulolchilik, to‘qimachilik va zargarlikning rivojlanishi.

Eneolit davri. Sarazm, Anov va Geoksur madaniyatlari. Sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati markazlarining paydo bo‘lishi.

Bronza davri yodgorliklari: Namozgoh, Oltintepa, Gonur, Sopollitepa, Jarqo‘ton, Zamonbobo, Tozabog‘yob, Amirobod, Chust madaniyatlari. O‘zbekiston hududlarida o‘troq dehqonchilikning rivojlanishi. Patriarxal ota urug‘i munosabatlarining yuzaga kelishi.

Bronza davridagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar. Mehnatning birinchi yirik taqsimoti. Xo‘jaliklarning ixtisoslashuvi. O‘troq va chorvador aholi munosabatlari. O‘rta Osiyoda ilk shahar madaniyatining paydo bo‘lishi: Oltintepa, Gonur, Jarqo‘ton va boshqalar. Ziroatchilik va chorvachilik madaniyatlari doirasining kengayib borishi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, madaniy aloqalar, aholi va etnik jarayonlar. Moddiy va ma’naviy madaniyat.

O‘zbekiston hududida davlatchilikning shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari

“Davlatchilik” va “sivilizatsiya” tushunchasi. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari va omillari. Davlat kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalarning hilma-hilligi. Ilk shaharlar dastlabki davlatlarning asosi.

O‘zbekiston hududida dastlabki boshqaruv tizimining shakllanishi. Mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, mahsulot ayirboshlash, xususiy mulkning rivojlanishi. O‘rta Osiyoda ilk davlatlarning vujudga kelishi. Marg‘iyona – Baqtriya sivilizatsiyasi.

O‘lkamiz hududlarida dastlabki davlatlarning tashkil topishi. Ilk davlatchilik shakllari xususidagi qarashlar. “Avesto” va zardushtiylik. “Avesto”ning tarixiy

manba sifatida o‘rni. “Avesto”da geografik-hududiy nomlar, ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlar va siyosiy tarix, diniy falsafa.

Qadimgi Xorazm davlati. Xorazm haqidagi yozma va arxeologik ma’lumotlar, hududiy chegaralariga oid masalalar. Ko‘zaliqir, Qal’aliqir va boshqa yodgorliklar. Qadimgi Xorazm davlatida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

Qadimgi Baqtriya davlati. Yozma va arxeologik ma’lumotlar. Baqtriyaning hududiy chegaralari. Baqtra, Qiziltepa va boshqa shaharlar. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Tashqi iqtisodiy va madaniy aloqalar.

Sug‘d (Sug‘diyona) va uning hududi. Sug‘d arxeologik va yozma manbalarda. Ko‘ktepa, Afrosiyob, Uzunqir, Yerqo‘rg‘on va ularning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayoti.

Ahamoniylarning O‘rta Osiyoni bosib olishi. Mahalliy aholining bosqinchilarga qarshi ozodlik uchun kurashi. To‘maris, Shiroq qahramonligi. Fraada qo‘zg‘oloni.

Ahamoniylarning O‘rta Osiyoni ma’muriy-boshqaruv tartiblari. Satrapliklar. Soliq undirish tartibi. Iqtisodiy hayot. Pul muomalasi.

Yunon-makedon qo‘shinlarining Aleksandr Makedonskiy boshchiligida O‘rta Osiyoga yurishi. Spitamen boshchiligidagi ozodlik harakatlari. Yunonlar hukmronligi davrida Baqtriya va Sug‘diyona. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Madaniy hayot.

Sug‘diyona va Baqtriya yunon-makedon sulolasi - salavkiylar hukmronligi ostida. Yangi shaharlar qurilishi. Savdo-sotiq va hunarmandchilikning taraqqiyoti.

Salavkiylar davlatining inqirozi. Yunon-Baqtriya davlatining tashkil topishi. Diodot va Yevtidemlar davrida davlatning kengayishi va kuchayishi. Ellin madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari va uning O‘rta Osiyoga yoyilishi. Sharq va G‘arb madaniyatlarining o‘zaro ta’siri. Antik davr shaharsozligi. Savdo-sotiq. Madaniy aloqalar.

Farg‘ona vodiysida davlat tuzilmasining shakllanishi. Xitoy manbalarida Farg‘ona vodiysi haqidagi ilk ma’lumotlar. Davan davlati. Uning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Davan va Xitoy munosabatlari.

Qang‘ davlatining tashkil topishi, Choch, Sug‘d, Buxoro, Xorazmning birlashtirilishi. Davlat boshqaruvi tizimi. Xoqon, yabg‘u (jabg‘u), hokim. Oliy kengash. Iqtisodiy hayoti. Tashqi aloqalari.

Afrig‘iylar sulolasi davrida Xorazm. Xorazmshohlar. Kat shahrining poytaxtga aylantirilishi.

Yuechji qabilalarining O‘rta Osiyoga kirib kelishi. Kushonlar (guyshuan) sulolasining siyosiy hokimiyatni egallashi. Kushonlar tomonidan mintaqadagi siyosiy uyushmalarning birlashtirilishi. Yunon-Baqtriya davlatining ag‘darilishi. Kudjula Kadfiz, Kanishka davrida saltanat hududlarining kengayishi, davlat qudratining kuchayishi. Kushonlar sulolasi davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Qishloq xo‘jaligi. Sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi. Shaharlar qurilishi. hunarmandilik va savdo-sotiq. Tanga pullarning zarb etilishi. Kushon sivilizatsiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Kushon davlati tarixi bo‘yicha yangi tadqiqotlar. Kushonlar saltanatining o‘zbek davlatchiligi tarixida tutgan o‘rni.

Madaniy–ma’naviy hayot. Diniy e’tiqodlar. Zardushtiylik, buddaviylikning tarqalishi. Ibodatxonalar. Haykaltaroshlik. Tasviriy san’at.

Qadimiy yozuv madaniyati. Oromiy yozuvi. Baqtriya, Xorazm, Sug‘d yozuvlarining oromiy yozuvi tarkibidan ajralib chiqishi. Yunon-Baxtar yozuvi. Buyuk ipak yo‘lining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. “Kumush yo‘l”, “Lojuvard yo‘li”, “Shoh yo‘li”, “G‘arbiy meridional yo‘l”. XIX asrning ikkinchi yarmida «Buyuk ipak yo‘li» atamasining fanga kiritilishi. Buyuk ipak yo‘li tarixiy rivojlanish bosqichlari. Amir Temur davrida Buyuk ipak yo‘li. Ipak yo‘lining O‘rta Osiyoning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotidagi o‘rni, Sharq va G‘arbni bog‘lovchi omil. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida ipak yo‘li mavqeining pasayishi va uning taqdiri. XIX asr jahon savdo-iqtisodiy munosabatlarida Buyuk ipak yo‘lini Sharq va G‘arb o‘rtasidagi muloqotga yo‘liga aylantirish jarayonida O‘zbekistonning tutgan o‘rni.

O‘RTA ASRLARDA O‘RTA OSIYoDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY, SIYoSIY VA MADANIY HAYoT

O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik shakllanishi

O‘zbek xalqi etnogenezi va uning tarixshunosligi. “Urug‘”, “qabila”, “elat”, “xalq” va “millat” tushunchalari. O‘zbek xalqining etnik shakllanishi va uning asosiy bosqichlari. Turon turkiy qavmlar qadimdan yashagan hudud.

O‘troq hayot kechirgan eng qadimiy aholining Xorazm, Baqtriya, Sug‘d, Parkana, Toxariston, Chochda yashaganligi. Hozirgi o‘zbek xalqining asosini shu hududlarda bir necha ming yillar davomida yashab kelgan massagetlar, saklar, xorazmiylar, baxtarlar, sug‘diylar, toxarlar, chochliklar, dovonliklar tashkil etganligi. Turli asrlarda boshqa mintaqalar qabila va elatlari bilan tubjoy aholi o‘rtasida kechgan etno-madaniy jarayonlar.

Mil.av. I ming yillikning o‘rtalarida Markaziy Osiyo hududlaridagi etnik va ijtimoiy holat. Aholi o‘rtasidagi etnik va madaniy munosabatlar. Milodiy I ming yillik o‘rtasida bu jarayonning yanada jonlanishi. Turk-sug‘d simbiozi.

Arab xalifaligi istilosi va uning o‘zbek xalqi etnogeneziga ta’siri. IX-XII asrlarda qarluqlar, o‘g‘uzlar, qipchoqlar, chigillar va boshqa turkiy qavmlarning o‘zbek xalqi etnik shakllanishidagi o‘rni. Eski o‘zbek tiliga asos bo‘lmish qarluq-chigil lahjasining rivoj topishi va yozma adabiy til darajasiga ko‘tarilishi.

Mo‘g‘ullar istilosi, uning o‘zbek xalqi etnogeneziga ta’siri. Chig‘atoy turkiysi va uning mohiyati.

XV asr oxiri - XVI asrlarda O‘rta Osiyoga Dashti Qipchoq qabilalarining kirib kelishi va mahalliy aholi bilan aralashib, o‘troqlashuvi.

“O‘zbek” atamasi.

V-XII asrlarda O‘rta Osiyo davlatchiligi va ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayot

Xioniylar va kidariylar. O‘rta Osiyo hududlariga ko‘chmanchi qabilalarning yurishlari. Eron sosoniylari bilan o‘zaro munosabatlar.

Eftaliylar. O‘rta Osiyoda eftaliylar davlatining shakllanishi, uning hududiy chegarasi. Eftaliylar va Eron sosoniylari. Sharqiy Eron va Shimoliy Hindistonning eftaliylar davlatiga qo‘shib olinishi.

Eftaliylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Savdo. Hunarmandchilik. Chorvachilik. Yerga egalik munosabatlari va tabaqalanish, dehqonlar, kashovarzlar va kadivarlar. Ularning turmush tarzi va jamiyatda tutgan o‘rni.

Mazdak harakatining paydo bo‘lishi va uning asosiy g‘oyalari. Eftaliylar davrida madaniyat, diniy e’tiqodlar.

Turk xoqonligining vujudga kelishi. Bumin xoqon. Istami Yabg‘u xoqon. Xoqonlik aholisining etnik tarkibi va tili. Turk xoqonligi tomonidan O‘rta Osiyo va Uraloldi hududlarining zabt etilishi.

Turk xoqonligi davrida mamlakat boshqaruvi. Xoqon - davlat boshlig‘i. Zodagonlar kengashi - qurultoy. Mustaqil mahalliy hokimliklar. Ijtimoiy tabaqalanishning kuchayishi. Abruy qo‘zg‘oloni. Turk xoqonligining ikki qismga bo‘linishi. O‘rta Osiyo G‘arbiy turk xoqonligi tarkibida xo‘jalik va ijtimoiy hayot. To‘n-yabg‘u hukmronligi davri. Din. Madaniy hayot. O‘zaro munosabatlar.

Arab xalifaligi. Xalifalar tomonidan amalga oshirilgan istilochilik yurishlari. Movarounnahrning Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi arab qo‘shini tomonidan istilo qilinishi. Arab xalifaligining O‘rta Osiyoda yuritgan siyosati. Boshqaruv tizimi. Soliq siyosati: xiroj, ushr, jizya, zakot. Mahalliy madaniyatning ta’qib etilib, arab madaniyatining targ‘ib etilishi. Shaharlarga arab qo‘shinining joylashtirilishi, arab tilining rasmiy tilga aylantirilishi.

Arab xalifaligidagi ichki sulolaviy kurashning o‘lkamiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta’siri. Abu Muslim boshchiligidagi harakat. Mustamlaka zulmining yanada kuchayishi. G‘urak va Devashtich. Xalq g‘alayonlari. Muqanna qo‘zg‘oloni va uning ahamiyati. Arab xalifaligining zaiflashuvi.

Islom dinining yoyilishi. Masjidlar qurilishi. Qur’oni karim – muqaddas kitob. Shariat qonunlari va axloq-odob. Hadislar va ularning ijtimoiy-siyosiy mohiyati. Islom dini ta’limotini rivojlantirishda o‘rta osiyolik olimlarning hissasi. Imom al-Buxoriy, imom at-Termiziy, imom al-Moturidiy. Mustaqillik yillarida diniy qadriyatlarning tiklanishi.

Allomalarimiz ziyoratgohlarining obod qilinishi va ushbu xayrli ishlarda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov xizmatining e’tirofi. Ma’naviy kamolotga erishuv yo‘lida muhaddislar merosining ahamiyati. Prezident Sh.M.Mirziyoev buyuk allomalar merosi haqida.

IX-XII asrga oid tarixiy manbalar va ularda davr voqeligining aks etishi.

IX asr boshlarida Movarounnahrning siyosiy ahvoli. Movarounnahr va Xurosonda mahalliy zodagonlar mavqeining o‘sishi. Tohiriylar davlati. Tohir ibn al-Husayn. Abulabbos Abdulloh. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Tohiriylar bilan safforiylar o‘rtasidagi kurash. Tohiriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

Movarounnahr viloyatlariga Somonxudot avlodlaridan noiblar tayinlanishi. Somoniylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Nasr ibn Amad. Ismoil Somoniy islohotlari. Dargoh va devon. Davlatni boshqarish tartibi. Somoniylar davrida kechgan siyosiy voqealar. Nasr II. Ayirmachi harakatlarga qarshi qurash. Turkiy gvardiya ta’sirining o‘sishi. Ruhoniylar mavqei. Buxoroning islom

dunyosida nufuzli markazga aylanishi. Soliq siyosati. Yer-suv munosabatlari. Mulkchilik shakllari. Iqto va iqtodorlar. Koranda-barzikorlar, ularning majburiyatlari. Shaharlarning rivojlanishi. Hunarmandchilik. Savdo-sotiq ishlari. Savdo uyushmalarining tashkil topishi. Karvon savdosi. Karvonsaroylar. O‘zbek davlatchiligi tarixida Somoniylar sulolasining tutgan o‘rni.

Sharqiy Turkiston va Yettisuvda Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi. Sotuq Bug‘roxon. Qoraxoniylarning Movarounnahrni qo‘lga kiritishi va Somoniylar davlatining barham topishi. Qoraxoniylar hukmronligining o‘rnatilishi va davlat boshqaruv usullari. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Agrar munosabatlar. Mulkchilik shakllari, soliq siyosati.

Nasr ibn Ali. Qoraxoniylar davlatining ikkiga bo‘linishi. Ibrohim Tamg‘achxon. Qoraxoniylar mavqeining zaiflashuvi.

Xorazmda hokimiyatning afrig‘iylardan ma’muniylar sulolasiga o‘tishi.

G‘aznaviylar davlati. Sabuktagin va Mahmud G‘aznaviy davrida davlatning kuchayishi. Ichki va tashqi siyosat. Masala mohiyatiga yangicha qarash.

G‘aznaviylar bilan saljuqiylar o‘rtasidagi to‘qnashuv. Dandanakon jangi. G‘aznaviylar davlatining inqirozi. Saljuqiylar davlati. Nizomulmulk va uning “Siyosatnoma” asari. Sulton Sanjar davrida saljuqiylar davlatining yuksalishi. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Saljuqiylar davlatining kuchsizlanishi. Qoraxitoylarning Movarounnahrga hujumlari.

Xorazmshoh Anushteginiylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Sulton Otsizning mustaqillik uchun sa’y harakatlari. Sulton Takash faoliyati va Xorazmshohlar davlatining yuksalishi. Muhammad Xorazmshoh. Xorazmshoh-Anushteginiylar davlatining o‘rta asr Sharqida tutgan o‘rni. Davlat boshqaruvi. Soliqlar. Yerga egalik shakllari. Madaniyat. Ilm-fan. Me’morchilik. O‘zbek davlatchiligi tarixida Xorazmshoh-Anushteginiylar davlatining tutgan o‘rni.

IX-XII asrlarda O‘rta Osiyoda ilm-fan va madaniyatning ravnaq topishi

IX-XII asrlarda O‘rta Osiyoda madaniy yuksalishni ta’minlagan omillar va shart-sharoitlar. Markazlashgan davlatlar hukmdorlarining fan va madaniyat ravnaqiga e’tibori. Shaharlarning madaniy markazlar sifatida taraqqiy etishi. Bayt ul-hikma. Xorazmdagi «Ma’mun akademiyasi». Xorazm Ma’mun akademiyasi 1000 yilligining yurtimizda keng nishonlanishi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov Xorazm Ma’mun akademiyasi to‘g‘risida.

Tabiiy fanlar. Muso al-Xorazmiy. Uning tabiiy fanlar bo‘yicha barkamol ijodi. «Al jabr val muqobala», «Hisob al-Hind» va boshqa asarlari. Olimning falakiyot fani rivojiga qo‘shgan hissasi. Al-Farg‘oniy. Uning XII asrdayoq Yevropada mashhur bo‘lishi hamda tabiiy fanlar (matematika, astronomiya, geografiya) rivojiga qo‘shgan buyuk hissasi. Abu Rayhon Beruniy. Uning tabiat falsafasi va tabiiy fanlar bilan qiziqishi. «Geodeziya», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston» asarlari. Abu Rayhon Beruniy 1050 yilligini jahon miqyosida nishonlanishi. Abu Ali ibn Sino. Olimning tibbiyot sohasidagi yutuqlari. «Tib qonunlari». Tabiiy fanlar sohasida faoliyat yuritgan boshqa olimlar.

Ijtimoiy fanlar. Al-Farobiy – buyuk qomusiy olim. Olimning tarixiy-falsafiy asarlari. «Fozil odamlar shahri», «Falsafaning mohiyati haqida kitob» va boshq. Abu

Bakr Narshaxiy. Olimning «Tarixi Buxoro» asarlari. Rudakiy fors-tojik adabiyotining asoschilaridan biri.

IX-XII asrlarda islom dini va so‘fiylik. Islom dinini targ‘ib etuvchi markazlar. Imom Buxoriy. «Al-Jome’ as-sahih». Hadislar tasnifi. Imom Termiziy. «Jome’ at-Termiziy». Imom al-Moturidiy, Mahmud Zamaxshariy. So‘fiylik g‘oyasi. Yusuf Hamadoniy. Alloma ta’limotida vatanparvarlik g‘oyalari.

Ahmad Yassaviy. So‘fiylikning Yassaviya tariqati va uning asoslari. «Devoni hikmat». Abduholiq G‘ijduvoniy. Najmiddin Kubro.

So‘fiylikdagi Kubroviya oqimi. Kubroviya qonun-qoidalari. Naqshbandiya tariqati. IX-XII asrlarda me’morchilik va san’at. Qurilish tartibi. Shaharlar me’morchiligi. Mahobatli qurilishlar. Ismoil Somoniy maqbarasi. Masjidlar. Mag‘oki Attoron. Chorustun. Childuxtaron. Minoralar – Minorai Kalon, Jarqo‘rg‘on, Vobkent. Saroylar. Movarounnahr me’moriy maktabining o‘ziga xos xususiyatlari. Naqqoshlik va tasviriy san’at. Musiqa san’ati.

Yurtimiz buyuk allomalari - yuksak ma’naviy jasorat sohiblari. Mustaqillik yillarida o‘lkamizda ulug‘ allomalar merosining o‘rganilishi. Ushbu zotlar tavallud yoshlarini jahon miqyosida nishonlanishi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida buyuk allomalar faoliyatining aks etishi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev buyuk allomalar merosiga bo‘lgan ulkan e’tibor xususida.

Mo‘g‘ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi – Vatan qahramoni

Chingizxon (Temuchin)ning mo‘g‘ullarni birlashtirib, kuchli davlat tuzishi. "Yasoq" qonunlari. Chingizxon va Sulton Muhammad Xorazmshoh o‘rtasidagi elchilik munosabatlari. Dastlabki elchiliklar. O‘tror voqeasi. Mo‘g‘ullarning O‘rta Osiyoga istilochilik yurishlari. Chingizxonning harbiy rejasi. Mo‘g‘ullar hujumi arafasida Xorazmshohlar davlatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Urganch (Gurganj) kengashi. O‘tror mudofaasi. Xo‘jand qamali. Temur Malik jasorati. Buxoro va Samarqandning bosib olinishi. Termizning zabt etilishi. Gurganj (Urganch) qamali. Najmiddin Kubro jasorati. Xorazmshoh qo‘shinlarining mag‘lubiyati, uning sabablari. Jaloliddin Manguberdi - Vatan himoyachisi. Uning Xurosondagi faoliyati. Parvon dashtidagi jang. Sind jangi. Jaloliddin Manguberdining Xuroson va Kavkazortidagi faoliyati. Mo‘g‘ul istilosi va zulmiga qarshi kurashning davom ettirilishi. Jaloliddin Manguberdi – buyuk sarkarda va davlat arbobi.

Mo‘g‘ul istibdodining og‘ir oqibatlari. Chig‘atoy ulusining tashkil topishi. Boshqaruv tartibi. Mahmud Yalavoch. Soliqlar. Zulmning kuchayishi. Mahmud Torobiy qo‘zg‘oloni, uning tarixiy ahamiyati. Ma’sudbek – Movarounnahr hokimi.

Chingiziylar orasidagi ichki kurash va uning Chig‘atoy ulusiga ta’siri. Kebekxonning ma’muriy va pul islohotlari. Tarmashirin. Chig‘atoy xonlarining islomni qabul qilishi. Qozonxon davrida hokimiyat uchun ichki kurashning kuchayishi. Chig‘atoy ulusining parokandalikka uchrashi.

Madaniy hayot. Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Rumiy. Burhoniddin Rabg‘uziy, Bahouddin Naqshband.

Amir Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot

XIV asr o‘rtalarida Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.

Amir Temur Movarounnahr siyosiy kurash maydonida. Amir Temurning Amir Husayn bilan ittifoqi. Ularning mo‘g‘ul hukmdori Ilyosxo‘jaga qarshi kurashi. Loy jangi, Ilyosxo‘janing Samarqandga yurishi.

Sarbadorlar harakati. Mo‘g‘ullarning chekinishi. Husayn va Temurning Samarqandni egallashi. Ular o‘rtasida o‘zaro nizoning kuchayishi va uning sabablari.

Sohibqiron Amir Temur hokimiyatining o‘rnatilishi. Samarqand – Amir Temur davlatining poytaxti. Amir Temurning mamlakatni birlashtirish va markazlashgan kuchli davlat tuzishdagi tarixiy xizmati. Amir Temurning harbiy yurishlari. Eron va Kavkazorti o‘lkalarining zabt etilishi. Temurning Oltin O‘rdaga yurishi. To‘xtamishning tor-mor etilishi. Temurning Hindistonga yurishi. Amir Temurning Kichik Osiyoga yurishi. Usmoniylar sultoni Yildirim Boyazidning tor-mor qilinishi. Amir Temur imperiyasining chegaralari. Amir Temur - buyuk davlat arbobi, mashhur sarkarda. Uning harbiy va siyosiy faoliyati tahlili. “Kuch - adolatda” shiorining mazmun-mohiyati. Amir Temurning O‘rta Osiyo va jahon tarixida tutgan o‘rni. Sohibqiron Amir Temur millatimiz g‘ururi va faxri. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Amir Temurning O‘zbekiston tarixida tutgan o‘rni to‘g‘risida. Temur tuzuklari.

Amir Temur ma’naviyati. Amir Temurning ma’naviy rahnamolari. Shamsiddin Kulol, Sayid Baraka, Zayniddin Tayobodiyning Temur faoliyatidagi o‘rni. Davlat siyosatida islom dinining roli. Saltanatni boshqarish tizimi. Qo‘shinning tuzilishi va harbiy intizom. Soliq siyosati. “Temur tuzuklari” davlat boshqaruv ishidagi muhim manba sifatida. Mamlakatni boshqarishning suyurg‘ol usuli.

Xo‘jalik hayot. Soliq siyosati va majburiyatlar. Savdo-sotiq ishlari. Madaniy hayot. Fan va madaniyatga homiylik. Shaharlarning obod qilinishi. Samarqanddagi me’morchilik ishlari, bog‘ va saylgohlarning yaratilishi. Qurilish va me’morchilik.

Amir Temur vafotidan keyin temuriy shahzodalar o‘rtasida toju taxt uchun ichki kurashlar. Markazlashgan davlatning parchalanishi. Shohruh Mirzo hukmronligi davrida temuriylar saltanati. Davlat nufuzini ko‘tarishga harakat. Ichki va tashqi siyosat. Tarixiy manbalarda Shohrux Mirzo hukmronligi tavsifi.

Movarounnahrda Mirzo Ulug‘bek hukmronligi. Ichki va tashqi siyosat. Mirzo Ulug‘bek davrida madaniyat, ilm-fan va adabiyot ravnaqi. Ulug‘bek akademiyasi. Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi. Miniatyura san’ati. Kamoliddin Behzod. Tarixnavislik. Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh, Mirxond, Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiy. Mustaqillik yillarida Mirzo Ulug‘bek merosining o‘rganilishi. O‘zbek xalqi ma’naviy merosida Mirzo Ulug‘bekning tutgan o‘rni.

Mirzo Ulug‘bekka qarshi bo‘lgan muxolif kuchlar. Temuriylar o‘rtasidagi ichki kurashlarning avj olishi. Mirzo Ulug‘bekning o‘ldirilishi. Movarounnahrda Abusaid va uning o‘g‘illari, Xurosonda Husayn Boyqaro hukmronligi. Ichki va tashqi siyosat. Madaniy hayotga sulton homiyligi. XV asrning ikkinchi yarmida fan, adabiyot va

madaniyat. Alisher Navoiyning siyosiy va adabiy faoliyati. Ma’naviy barkamol shaxs tarbiyasida Navoiy ijodining ahamiyati. Adabiy muhit. Lutfiy, Sakkokiy, Jomiy. O‘zbek tilining takomillashuvi. Mustaqillik yillarida Amir Temur va Temuriylar davri tarixining o‘rganilishi.

O‘rta Osiyo hududining xonliklarga bo‘linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari

Tarixiy yozma manbalar. Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrga yurishi. Boburning Shayboniyxon bilan to‘qnashuvi. Movarounnahr va Xurosonning shayboniylar tomonidan bosib olinishi hamda Movarounnahrga shayboniylar sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi.

Shayboniylar sulolasining boshqaruv tizimi. Mamlakatning sultonlar va beklarga bo‘lib berilishi. Amaldorlar va beklar mavqeining kuchayishi, markaziy davlat hokimiyatining zaiflashuvi. Shayboniylar davrida madaniy hayot.

Buxoro xonligining tashkil topishi. Ubaydullaxon I va Abdullaxon II larning davlat markazlashuvidagi o‘rni. Uning mamlakatni markazlashtirish, obodonlashtirish, qurilish, bunyodkorlik sug‘orish inshootlarini qurish yo‘lidagi faoliyati. Xalqaro aloqalar.

Buxoro xonligida ashtarxoniylar (joniylar) sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi. Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli. Imomqulixon, Subxonqulixon va Ubaydullaxon II lar faoliyati. Soliq siyosati. Hunarmandchilik. Ichki va tashqi savdo. Pul muomalasi. Tashqi aloqalarning asosiy yo‘nalishlari. Mamlakatda ichki kurash, tarqoqlikning kuchayishi va uning asosiy sabablari.

Madaniy hayot rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari. Buxoro xonligida hokimiyatning mang‘it amirlari qo‘liga o‘tishi. Mang‘itlar davrida Buxoro amirligining ijtimoiy va davlat tuzumi. Amir Shohmurod, amir Haydar va amir Nasruloxonlar faoliyati. Qishloq xo‘jaligining ahvoli. Tijorat ishlari. Hunarmandchilik. Ma’muriyatchilik, zo‘ravonlik va o‘zboshimchalikning kuchayishi. Buxoro va Xiva o‘rtasidagi urushlar, ularning og‘ir oqibatlari. Iqtisodiyotning tushkunligi. Xalq g‘alayonlari. Buxoro va Rossiya munosabatlari.

Buxoro amirligida madaniy hayot. Buxoro - islom va ma’rifat markazi. Maktab va madrasalar. Qozilar, masjid imomlari, mudarrislarning tayyorlanishi. Adabiy hayot va Buxoroda tarixnavislikning rivoji. Mushfiqiy, Nasafiy, Turdi, Xafiz, Tanish Buxoriy va boshqalar. Me’morchilik va shaharsozlik.

Xiva xonligining tashkil topishi. Shayboniylarning Xorazmdagi hukmronligi. Elbarsxon, Abulg‘ozixon, Anushaxon. Qo‘ng‘irot sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Muhammad Rahimxon I davrida xonlik chegaralarining kengaytirilishi. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy ahvol. Savdo-sotiq ishlari. Me’morchilik. Qoraqalpoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Qoraqalpoq xalqi madaniyati.

Xivaning Rossiya bilan aloqalari. A.Bekovich-Cherkasskiy va Nikiforov diplomatik missiyalari.

XVIII asrda Farg‘ona vodiysidagi siyosiy vaziyat. O‘zbeklarning ming urug‘idan bo‘lgan Shohruhbiy tomonidan Qo‘qon xonligiga asos solinishi. Buxoro xonligi hududi hisobidan xonlik chegarasining ortib borishi. Xonlikning hududi va aholisi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti. Muhammad Alixon davrida xonlik

chegaralarining kengaytirilishi. Buxoro amiri Nasrullo bilan Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi urushlar va ularning oqibati. Qo‘qon xonligidagi ichki kurash. Xalq noroziligining kuchayishi.

Qo‘qon xonligida madaniy hayot. Qo‘qon adabiy muhiti. Mashrab, Uvaysiy, Nodirabegim, Maxmur, Gulxaniy. San’at. Me’morchilik. Xonliklardagi siyosiy-huquqiy bilim va diniy dunyoqarashning jamiyat ma’naviy, moddiy hayotiga ta’siri. XVII-XIX asr I-yarmida O‘rta Osiyo xonliklari tashqi siyosiy aloqalari. G‘arbiy Yevropa bilan o‘zaro munosabatlar.

ROSSIYA IMPERIYaSI VA SOVETLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA O‘ZBEKISTON

O‘zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakati. Jadidchilik harakati

XIX asr o‘rtalarida o‘zbek xonliklarining ijtimoiy-siyosiy ahvoli va o‘zaro munosabatlari. O‘rta Osiyo masalasida Angliya va Rossiya o‘rtasida “Katta o‘yin”ning avj olishi.

Rossiya imperiyasi qo‘shinlarining Qo‘qon xonligi hududiga hujumi. Oqmachit, So‘zak, Avliyoota (Jambul), Turkiston, Chimkent shaharlarining zabt etilishi. Toshkent mudofaasi, uning bosib olinishi. Turkiston viloyatining tashkil etilishi. Jizzax, O‘ratepa uchun janglar. Turkiston general-gubernatorligining tashkil qilinishi.

Kaufmanning Buxoro amirligiga yurishi. Zirabuloq yonidagi jang, amir qo‘shinlarining mag‘lubiyati. Samarqand va Kattaqo‘rg‘onning Buxoro amirligidan tortib olinishi. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylantirilishi. Abdulmalik to‘ra (Katta to‘ra) boshchiligidagi ozodlik harakati va uning ahamiyati. 1870 yilgi harbiy harakatlar.

Rossiya imperiyasining Xiva xonligiga bosqinchilik yurishi. Xazorasp, Xo‘jayli, Qo‘ng‘irotning zabt etilishi. Gandimiyon shartnomasi. Xiva xonligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylantirilishi. Amudaryo bo‘limining tashkil qilinishi.

Qo‘qon xonligidagi siyosiy tanglik. Xudoyorxon siyosati. Xalq qo‘zg‘olonlari. Po‘latxon boshchiligidagi qo‘zg‘alon. Rossiya imperiyasi tomonidan Qo‘qon xonligining bosib olinishi va xonlikning tugatilishi. Farg‘ona viloyatining tashkil etilishi.

Rossiya imperiyasining o‘lkamizdagi mustamlakachilik siyosati. Mustamlakachilik boshqaruv tizimining shakllanishi. 1886 yilgi «Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom» va mustamlakachilikning kuchayishi. Harbiy boshqaruv tartibi. O‘lkaning viloyatlar, uezdlar, volostlar, uchastkalarga bo‘lib boshqarilishi. Toshkent shahar Dumasi.

Rossiya imperiyasining o‘lkamizda iqtisodiy hukmronlikni o‘rnatish tadbirlari. Rossiya sanoat va moliya kapitalining hukmronligi. Savdo-sotiq ishlari. Temir yo‘l, zavod va fabrikalar qurilishi. Agrar siyosat. O‘lkaga Rossiya aholisini ko‘chirib keltirish siyosatining amalga oshirilishi.

Mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan madaniy va ma’rifiy siyosat. Rus-tuzem maktablari.

Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakatining boshlanishi, uning bosqichlari. Farg‘ona vodiysidagi xalq harakatlari. Toshkent qo‘zg‘oloni. Andijon qo‘zg‘oloni va boshqalar.

Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi. Uning atoqli vakillari: Ismoil Gaspirali, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlar faoliyati. Ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Jadid maorifi, adabiyoti, matbuoti, teatri. Madaniy-ma’rifiy va xayriya jamiyatlari. Din va dinga munosabat masalalari.

Birinchi jahon urushining o‘lka hayotiga salbiy ta’siri. Rossiya imperiyasining mahalliy aholini front orqasidagi ishlarga safarbar etish siyosati. Mehnatkash aholi noroziligining kuchayishi. 1916 yilgi xalq qo‘zg‘oloni va uning tavsifi. Mustamlaka Turkiston (XIX asr oxirlari –XX asr boshlari) tarixiga oid tadqiqotlarda masala mohiyatiga kiritilgan yangiliklar.

Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va unga qarshi qurolli harakat

Rossiyadagi 1917 yil fevral burjua-demokratik inqilobi, podsho hokimiyatining ag‘darilishi, uning o‘lkamizga ta’siri. Ishchi va askar deputatlari soveti. Musulmon mehnatkashlari sho‘rosi. Rossiya Muvaqqat hukumati Turkiston qo‘mitasining tuzilishi. Jadidlar harakatining faollashuvi. «Sho‘roi islomiya», «Sho‘roi ulamo» tashkilotlarining tuzilishi va ularning faoliyati. Umumturkiston musulmonlarining qurultoylari. Jadid matbuot organlari.

Toshkent hamda o‘lkaning boshqa shaharlarida sovetlar hokimiyatining o‘rnatilishi. Sovetlarning III O‘lka qurultoyi, unda tuzilgan hukumat tarkibi va qabul qilingan qarorlarda ulug‘ davlatchilik, mahalliy aholini kamsitish ruhining ifodalanishi.

O‘lka musulmonlarining Qo‘qonda chaqirilgan favqulodda IV qurultoyi. Turkiston muxtoriyatining tashkil etilishi. Bolsheviklar hokimiyatining mahalliy xalq irodasiga qarshi chiqishi va katta qo‘shin bilan Qo‘qonga hujum qilishi. Qo‘qon fojeasi. Turkiston muxtor hukumatining ag‘darilishi.

Turkiston ASSRning tuzilishi. Turkkomissiya. “Harbiy kommunizm” siyosati.

Farg‘ona vodiysida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatning boshlanishi, uning mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari, bosqichlari. Madaminbek, Ergash va boshqa qo‘rboshilar harakati.

Xiva xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat. Xiva xonligining zaiflashuvi. Junaidxon. «Yosh xivaliklar» tashkiloti faoliyati. Sovetlar hokimiyati qizil armiyasining Junaidxonga qarshi yurishi. Xiva xonligining ag‘darilishi. Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tuzilishi.

Buxoro amirligida ijtimoiy-siyosiy ahvol. «Yosh buxoroliklar» tashkiloti. Sovetlar hokimiyatining Buxoro amirli ichki ishlariga aralashuvi. Frunze qo‘mondonligidagi qizil armiyaning Buxoroga hujumi va amir Said Olimxon hokimiyatining mag‘lubiyati. Buxoro shahrining vayron qilinishi. Xalqning jabrlanishi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tashkil etilishi. Sovetlar istibdodiga qarshi xalq qurolli harakatning davom etishi.

Sovet hokimiyatining O‘zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy siyosatining mustamlakachilik mohiyati.

XX asr 20-yillarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat. NEP siyosatining O‘zbekistonda amalga oshirilishi. Yer-suv islohoti. "Qo‘shchi" uyushmasi. Yer va suv solig‘i. Kooperatsiyalar va shirkatlarning tuzilishi. N.To‘raqulov, S.Otaboev, I.Xidiralievlar faoliyati.

Osiyoda milliy - davlat chegaralanishining o‘tkazilishi. Milliy chegaralanishning salbiy oqibatlari. O‘zbekiston SSRning tashkil topishi va uning SSSR tarkibiga kiritilishi. Aholining ijtimoiy tarkibi. Xalqning ma’naviy qarashlari va intilishlaridan yiroq bo‘lgan ma’muriy-buyruqbozlik tizimining qaror topishi.

Qoraqalpog‘istonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli. Qoraqalpog‘iston avtonom respublikasining tashkil topishi.

O‘zbekistonda sanoatlashtirish siyosati va amaliyoti.

Agrar siyosat. 1925-1929 yillarda o‘tkazilgan yer-suv islohoti. Qishloq xo‘jaligini kolxozlashtirish siyosati va uning og‘ir oqibatlari. “Quloqlashtirish” siyosati va uning mudhish natijalari. Suv inshootlarining qurilishi va bunda o‘zbek xalqining mehnat jasorati. Katta Farg‘ona kanalining qurilishi.

O‘zbekistonda 20-30-yillardagi madaniy hayot. “Madaniy inqilob”. Xalq maorifi. «Hujum» harakati. “Savodsizlikni tugatish” uchun kurash. Adabiyot va san’at. Ilm-fan. Dinga qarshi kurash.

SSSRda ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan totalitar tuzumning qaror topishi. Yakka hokimiyatchilikning kuchayishi. Respublika huquqlarining cheklanishi. Xalq bosib o‘tgan yo‘l – muvaffaqiyat va zafar, yo‘qotish va qurbonlar, bu tarixiy xotira ekanligi. "18 lar guruhi", "inog‘omovchilik", "qosimovchilik" guruhlari haqida uydirma va haqiqat. Siyosiy qatag‘onlar va uning bosqichlari. Qatag‘on siyosati oqibatida xalqimiz boshiga tushgan og‘ir kulfatlar. A.Ikromov, F.Xo‘jaev va boshqa davlat, partiya arboblarining qatag‘onga uchrashi. O‘zbek ziyolilarining quvg‘in etilishi. Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir va boshqa ko‘plab ziyolilarning ayanchli taqdiri. Diniy tashkilotlar va ruhoniylarning ta’qib etilishi. Inson huquqlarining poymol etilishi va uning fojiali oqibatlari. Mustaqillik yillarida qatag‘on qurbonlari xotirasining abadiylashtirilishi. Masala yuzasidan tarix fanida amalga oshirilgan tadqiqotlar. Prezident Sh.M.Mirziyoev qatag‘on qurbonlari to‘g‘risida.

Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi

Ikkinchi jahon urushining boshlanish sabablari. O‘zbekistonning urush girdobiga tortilishi.

O‘zbekiston moddiy va ma’naviy kuchlarining fashizmga qarshi kurashga safarbar etilishi. Umumiy harbiy safarbarlik.

Respublikada xo‘jalik va ijtimoiy hayotning harbiy izga solinishi.

Mehnat safarbarligi. Frontga umumxalq yordami.

SSSRning g‘arbiy viloyatlaridan sanoat korxonalari, o‘quv va ilm maskanlari, madaniyat muassasalarining ko‘chirib keltirilishi, joylashtirilishi va ishga

tushirilishi. Front va frontga yaqin hududlardan aholining ko‘chirilib keltirilishi, ularni qabul qilish, joylashtirish ishlari. O‘zbek oilalarining yetim bolalarni farzandlikka olish harakati. Yarador va bemor jangchilarni qabul qilish, sog‘lomlashtirish tadbirlari. Og‘ir va sinovli yillarda o‘zbek xalqining yuksak ma’naviyat va bag‘rikenglik fazilatlarini namoyon etishi.

Urush yillarida O‘zbekiston sanoatining ahvoli. Farhod GESi qurilishi. Bekobod metallurgiya zavodining qurib, ishga tushirilishi.

Transport va aloqa tarmoqlarining faoliyati.

Urush yillarida ilm-fan va madaniyat. Adabiyot, tasviriy san’at. Teatr va musiqa san’ati.

O‘zbekiston jangchilarining frontda ko‘rsatgan jasoratlari.

Urush yillarida qrim-tatarlari, mesxeti turklari, chechenlar, qorachoylar va boshqa xalqlarning o‘z vatanidan badarg‘a qilinishi, ularning sharqqa, jumladan, O‘zbekistonga ko‘chirilishi. O‘zbek xalqining ularga ko‘rsatgan mehr-muruvvati.

Fashistlar Germaniyasi va Yaponiyaning taslim bo‘lishi.

Fashizmni tor-mor etishda O‘zbekistonning munosib o‘rni. Urushning yakunlari va saboqlari.

O‘zbekistonda “Xotira va qadrlash kuni”ning nishonlanishi, uning mohiyati va ahamiyati. “Xotira va qadrlash kuni”ning mohiyati va ahamiyati. Mavzu yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar va yangiliklar.

Sovetlar davrida ma’muriy-buyruqbozlik tuzumining kuchayishi va inqirozi davrida O‘zbekiston (1946-1989 yy.)

Urushdan keyingi yillarda O‘zbekistonning iqtisodiy hayoti. Sanoat va transport. Angren, Olmaliq, Guliston, Yangier, Navoiy, Quvasoy, Taxiatosh va boshqa yangi sanoat shaharlarining vujudga kelishi.

Respublikamizning agrar xo‘jaligi. Qo‘riq va bo‘z yerlarning o‘zlashtirilishi.

O‘zbekistondagi demografik jarayonlar xususiyatining e’tiborga olinmaganligi oqibatlari. “Soxta urbanizatsiyalashtirish”. N.A.Muhitdinov faoliyati.

O‘zbekistonda 50-70-yillarda o‘tkazilgan iqtisodiy islohotlar va ularning samarasizligi. Rivojlanishda ekstensiv usulning hukmronligi. Iqtisodiyotning bir tomonlama, xom ashyo yetishtirish tomon yo‘naltirilishi. Paxta yakkahokimligining oqibatlari, ekologik holatning buzilishi. Agrar siyosatdagi nomutanosiblik. Orol fojiasi.

XX asr 50-80-yillarida respublikaning madaniy hayoti. Ilm-fan. Adabiyot va san’at. Teatr jarayonining rivojlanishi. Ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar. Oliy va o‘rta ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash.

Ma’naviy hayotda mafkuraviy cheklashlar, ma’muriy-buyruqbozlikning kuchayishi. O‘zbek xalqini o‘z milliy qadriyatlari, ma’naviy merosidan begonalashtirish, o‘zbek tilini qo‘llash doirasining torayishi va uning kamsitilish hollari. Ijtimoiy fanlarning ahvoli. Adabiyot va san’at asarlarida, radio va televidenie, kino va teatr faoliyatida real hayotdan chekinish hollari. Tashqi iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi.

Sharof Rashidov - davlat va jamoat arbobi.

XX asr 80-yillarining o‘rtalarida SSSRning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotida inqirozli vaziyatning yanada keskinlashuvi. «Qayta qurish» siyosati va uning cheklanganligi. Qayta qurish yillarida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy hayot. Mustabid tuzumning iqtisodiyotni isloh qilish yo‘lidagi urinishi, uning barbod bo‘lishi sabablari. Sovetlarning qatag‘on zo‘rvonlik siyosati. “Paxta ishi”, “O‘zbek ishi”.

Mustabid sovet tuzumining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulga yuz tutish omillari. Sobiq sovet davlati milliy siyosatining inqirozi va millatlararo munosabatlardagi ziddiyatlar. Farg‘ona fojiasi.

XX asrning so‘nggi choragida O‘zbekistonda ekologik vaziyatning yomonlashuvi.Orol fojeasi.

O‘zbekistonda siyosiy partiyalar, jamoat va boshqa nodavlat tashkilotlarining vujudga kelish jarayonlari.

O‘ZBEKISTONNING ENG YaNGI TARIXI

O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida (1989-1991 yillar)

XX asr 80-yillarining oxirlarida Islom Karimovning O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo‘mitasiga birinchi kotib etib saylanishi. Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘zgarishlarning boshlanishi. 1989-90 yillarda amalga oshirilgan o‘zgarishlar. Kadrlar siyosatida milliy manfaatlar ustuvorligining o‘sib borishi. «Paxta ishi»ning qayta ko‘rilishi va tarixiy adolatning tiklanishi. O‘zbekiston Respublikasi «Davlat tili haqida»gi Qonunning qabul qilinishi.

1990 yil fevralida O‘zbekiston Oliy Kengashiga o‘tkazilgan saylovlar. O‘zbekistonda Prezidentlik lavozimining ta’sis etilishi. Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti etib saylanishi. Mustaqillik Deklaratsiyasining qabul qilinishi va uning ahamiyati. 1989-1991 yillarda O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va I.Karimov boshchiligidagi yangi rahbariyatning respublika manfaatlari yo‘lida amalga oshirgan sa’y-harakatlari.

1991 yil avgust voqealari. GKChP, Sovet davlatchiligi tarixidagi tanglik. SSSRning tanazzulga yuz tutishi. Masala mohiyati tahlili.

I. Karimovning «O‘zbekiston mustaqillik ostonasida» kitobi mazkur davrni o‘rganish uchun manba sifatida.

O‘zbekiston mustaqilligining qo‘lga kiritilishi. Mustaqil davlat asoslarining yaratilishi va mustahkamlanishi

Mustaqillik - o‘zbek xalqining azaliy orzu-intilishi natijasi ekanligi. Sotsialistik lagerning yemirilishi, totalitar tuzumning inqirozi natijasida yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi. O‘zbekiston davlat suverenitetining e’lon qilinishi. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining umumxalq tomonidan ma’qullanishi. Islom Karimov tomonidan mustaqil O‘zbekistonning birinchi Prezidenti sifatida amalga oshirilgan dastlabki islohotlar. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li.

O‘zbekiston mustaqilligi huquqiy asosining yaratilishi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning qabul qilinishi. Konstitutsiyaning tub mohiyati, g‘oyasi va uning asosiy qomus tarzda yaratilish tarixi. Konstitutsiyada inson

huquqlarining ustun qo‘yilishi, unda “fuqaro-jamiyat-davlat” o‘rtasidagi munosabatning oqilona belgilab qo‘yilganligi. Davlat ramzlarining qabul qilinishi. Huquqiy davlat tizimining yaratilishi.

O‘zbekistonda siyosiy islohotlarning boshlanishi va milliy demokratik davlat boshqaruvi hamda fuqarolik jamiyatining shakllanishi

Siyosiy islohotlarning boshlanishi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tashkil etilishi. Ikki palatali parlament. Ijro hokimiyatining mustahkamlanishi va liberallashtirilishi. Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining shakllanishi va faoliyati.

Qonun ustivorligi, xuquqiy fuqarolik jamiyati o‘zbek modelining asosiy tamoyillaridan biri sifatida. Demokratiyani yanada chuqurlashtirish. Ko‘p partiyaviylik. Siyosiy partiyalarning tashkil etilishi. Yangi qonunchilikning asosiy yo‘nalishlari. Qonunchilikning liberalashtirilishi. O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi. Sud hokimiyati islohotlari. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining isloh qilinishi. Davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonining erkinlashuvi. Fuqarolar siyosiy faolligining o‘sishi. O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqorolik jamiyatini barpo etish, uni rivojlantirish yo‘llari. Demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etish konsepsiyasi. “Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” g‘oyasi.

